

флексивли емеслигин ҳақыйқат сыпатында қабыл етиўимиз керек.

Соның ушында, шет тилиниң лексикасы каракалпак тили системасына бийимлесип;

- ҳәр кыйлы тараўларда динамиканы көрсетеди;

- белгили өзгерислерге ушрайды; ҳәм баскада бир-затларды қойып дәл корсетин

-Тиллер ара структуралық сәйкес келмеўшиликлерди анализлеў тилдиң раўажланыўын диахронияда көрип шығыў имканын береді.

Әдебиятлар

1. Бахтина С.И. Структурно-семантические особенности заимствованной лексики (на примере тематической группы «Пища и напитки»). // «Вестник» Чебоксарского филиала Московского государственного гуманитарного университета им. М.А. Шолохова. 2008. № 5. –С. 128, 177.

2. Зенович Е.С. Словарь иностранных слов и выражений. -М.: КРПА «Олимп», 2002. –С.778.

3. Мартысюк М. Характеристика немецких заимствований имен существительных в русском языке: фонетика, акцентуация, морфология, семантика. Poznan: Wydawnictwo Naukowe Uniwersytetu im. Adama Mickiewicza. 1978. –С.89.

4. Хауген Э. Процесс заимствования. // Новое в лингвистике. Языковые контакты. -М.: «Прогресс», 1972. Вып. 6. -С. 344-382.

РЕЗЮМЕ. Бу мақолада қарақалпақ тилига кириб келган ўзлашма сўзларнинг структуравий фарқлари кўриб чиқилади, шунингдек, лексик ва морфологик ўзлашувлар ҳамда уларнинг қарақалпақ тилига кириб келиши изоҳланади.

РЕЗЮМЕ. Данная статья рассматривает структурные дифференции заимствованных слов в каракалпакском языке, а также толкуются лексические и морфологические заимствования и их проникновения в каракалпакский язык.

SUMMARY. This article examines the structural differences of borrowed words in the Karakalpak language, and also interprets lexical and morphological borrowings and their penetration into the Karakalpak language. Borrowed words are those words that entered the Karakalpak language without translations, but with meanings and explanations from foreign languages.

OLIV TA'LIM TEXNIKA YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING O'ZBEK TILIDAGI MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

D.Ya.Shermatova – *katta o'qituvchi*

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Tayanch so'zlar: nutq, nutqiy faoliyat, nutqiy vaziyat, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkur, dialog, polilog, muloqot muhiti, nutqiy madaniyat, adabiy til va dialektal til.

Ключевые слова: речь, речевая деятельность, речевая ситуация, внимание, память, воображение и мышление, диалог, полилог, среда общения, культура речи, литературный язык и диалектный язык.

Key words: speech, speech activity, speech situation, attention, memory, imagination and thinking, dialogue, polylogue, communication environment, speech culture, literary language and dialectal language.

Muloqot – ko'p o'lchamli, serqirra jarayon. Fikr ifodalash vositalari, fikr mahsuli unda obyektiv va subyektiv omillar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshadi. Har bir insonning betakrorligi, uning ruhiy, aqliy, ma'naviy, jismoniy va boshqa xususiyatlari muloqot jarayoni ibtidosi-yu intihosi, uslubi, natijasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga muloqot yo'nalishi, natijasi ustida yana cheksiz tashqi omillar: nutq sharoiti, vaziyati, hududiy o'ziga xoslik, madaniy muhit, sotsial farq mavjudligini tasavvur qilsak, muloqotni so'zlovchi va tinglovchining shunchaki axborot almashinuvi deb baholash mumkin emas. Muloqotga kirishuvchilar va ularning fikr mahsuli, muloqot vaziyati, muloqot muhiti hisobga olinmas ekan, sifatli muloqot amalga oshmaydi. Shuningdek, muloqot tizimida ulardan birortasining bo'lmashligi ham mumkin emas.

Respublikamizdagi texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish xususida fikr yuritilganda, albatta, quyidagilar bilan fikrlashish, o'rtoqlashish lozim va maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shaxsiy kuzatish va tajribalar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, o'rta ta'lim maktablarini tamomlab, Respublikamizdagi texnik yo'nalishdagi mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim dargohlariga qabul qilingan talabalarning aksariyatida, 1-kursning avvalidanoq o'zbek tili darslarida nutqiy malakalarini tekshirish va tahlil qilish jarayonida, talaba – bo'lajak mutaxassislarining nutqiy muloqot kompetensiyasining rivojlanganlik darajasi talabga javob bermaydi. Ular mustaqil hamda ijodiy fikrlashi, o'z nutqini og'zaki va yozma tarzda ravon ifodalashda qiyinalishlari, so'z boyligining kamligi, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan muloqot jarayonlarida samarali foydalana olmasliklari, matnni qisqartirish, kengaytirish va mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirishda kamchiliklarga yo'l qo'yishi, shuningdek, tinglovchi sifatida badiiy tasvir vositalarini yaxshi tushuna olmasligi va o'zi ham gapda bunday vositalarni o'rinni qo'llay olmasligi ayon bo'ldi. Bunda talaba va toliblarning lug'at boyligi, gapda so'z va so'z birikmalaridan to'g'ri

foydalanish mahorati, gapni uslubi va grammatik jihatdan to'g'ri tuzishi hamda uni aniq, ixcham, mantiqan tushunarli ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalarni qo'llashga ehtiyoj sezilib qolmoqda. Buning bosh sababi esa, oila va boshqa sotsial muhitlarda badiiy kitoblarning o'qilishida deb hisoblaymiz.

Ularining nutqidagi yetishmovchilik va nuqsonlarni bartaraf etish uchun ularga faqat tilning nazariy jihatdan grammatik qurilishinigina emas, balki nutq sharoitidan kelib chiqqan holda fikrni og'zaki va yozma shakllarda amalda to'g'ri, ta'sirli, ravon va lo'nda bayon etish mahoratini ham singdirish zarur. Bu maqsadga erishishda pedagogik texnologiyaning yangi metod va vositalarini qo'llash yaxshi samara beradi. Binobarin, yaxshi samara ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishda ko'rinadi.

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ushbu bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan katta pedagogik mahorat va ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi [1].

To'g'ri va sifatli muloqotga erishish uchun o'quv faoliyati davomida talabadan nutq, nutqiy faoliyat, nutqiy jarayon, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlantirishni talab etadi. Bilim oluvchi faol ravishda o'zini o'zi boshqarish uchun, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'qituvchi o'quv faoliyatini samarali tashkil eta olishi zarur. Talaba-o'quvchidagi muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun esa samarali xislat va fazilatlarini rivojlantirishi mumkin. Har qanday xatti-harakat va faoliyatda talabaning nutqiy rivojlanishiga e'tibor berilishi va so'zlashuv madaniyatini tarkib topishi uchun e'tibor bermoq joiz.

Pedagog olimlarning yozishicha, tarbiyadagi eng oliy qadriyat – bu bilim oluvchi shaxsidir. Bu qadriyat pedagogning ongiga, qadriyatlari tizimiga singishi uchun pedagogning o'zini, uning fikrlash tarzini va xulq-atvorini

muvoqlashtirish lozim. Bunda ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, ta'lim jarayoniga eng zamonaviy texnik vositalar va yangi eksperimental dasturlarni kiritish bilan emas, balki yangicha tafakkurning vujudga kelishi bilan bog'liq [2].

Talaba muloqot qila olishlari uchun so'z ma'nosini bilishi hamda so'z ma'nosi ustida ishlashni bilishi lozim. Ona tili, ya'ni o'zbek tili darslarida bilim oluvchi bilimlarni tayyor holda o'zlashtiruvchiga aylanib qolmasligi, dars davomida qo'llangan so'zlarning ma'nosini bilishi muloqotni to'g'ri tashkil etishga zamin yaratadi. Zero, so'z ma'nosiga e'tibor berish ko'nikmasini shakllantirish fikrni to'liq ifoda etish uchun xizmat qiladi. Amaliy auditoriya soatlarida so'zlarning ma'nosi bilan tanishtirish suhbat va tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Mutaxassislarning e'tirof etishlariga ko'ra, talaba-yoshlarning o'quv faoliyatidan yetakchi bo'lgan – muloqot faoliyati bilim egallovchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy motivlar, asosan, mana shunday muloqot orqali shakllanadi hamda uning xotirasida bardavomlikka ega bo'ladi.

Oliy ta'lim texnika yo'nalishida tahsil ola boshlagan talabalarga o'zbek tilini o'qitishda muloqot madaniyatini rivojlantirishni bo'yicha quyidagi samarador amalga oshirish texnologik modelini tavsiya etish mumkin.

Eruditsiya (*lotincha "bilimdonlik"*) chuqur va har tomonlama bilish, voqelikdan keng xabardor bo'lish, aql zakovot ma'nosini ifodalaydi [3].

Muloqotning vazifasini ukrain pedagog olimi va psixologi L.A.Karpenko [4] to'rt turga bo'lib, ularni quyidagicha ko'rsatib o'tadi:

1. Aloqa o'rnatish (*suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash*).

2. Faoliyatga undash (*suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish*).

3. Informationsion vazifa (*suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalarni o'zaro almashish*).

4. Koordinatsion vazifa (*hamkorkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishda harakatlarni muvoqlashtirish*).

Muloqot – har bir shaxsning shakllanishida, rivojlanishida asosiy omil bo'lib, birgalikda faoliyat ko'rsatish hamda umumiy maqsadga erishish, shaxslararo aloqa munosabatlarni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Demak, muloqotni ta'lim jarayonida sifatli amalga oshirish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish mumkin, degan savol tug'iladi. Buning uchun ta'lim jarayonida individual va guruhda ishlash yo'l yo'riqlarini, usullarini o'rgatish, o'qituvchi o'quvchini sub'ekt darajasiga ko'tara olishi, tomonlarning fikrlarini o'rganib, ularni yo'naltira bilish lozim. Chunki "muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni" [5] hisoblanadi. Mazkur jarayonni dialogik muloqot orqali sifatli yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi.

Har bir talabaga shaxsiy vazifa beriladi, professor-o'qituvchi ular bayonotini qabul qilib oladi. Vazifani uddalashda ular hissiyoti, idroki ahamiyatli hisoblanadi. Chunki hissiy bilish natijasida o'smirda obyektiv borliqqa, hayotga, sinfdoshlari va do'stlariga nisbatan alohida hissiy kechinmalari aks etadi. Ta'lim jarayonida talabaning miyasida his-tuyg'ular, emotsional holatlar, turli ichki kechinmalar paydo bo'ladi va emotsiyani yuzaga keltiradi, bu esa o'z navbatida muloqot qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Ehtiyoj subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning aks etishidir. Ehtiyoj va uning shaxs kamolotidagi o'rni haqida L.I.Bojovich "ehtiyot – individ organizmi va u shaxs taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan zarurat"[6]. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba'zan o'z-o'zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan ob'ektiv hodisalar mohiyatiga aloqador

bilimlar majmuiga ega bo'lish bilan, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usullarini bilish va ulardan o'z o'rni unumli foydalanishni nazarda tutadi [7].

Suhbatlarda talaba shaxsining temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalarning hosil bo'lishida muloqotning o'rni beqiyos. Buning uchun ularning idrok darajasini hisobga olishimiz, uni rivojlantirishimiz zarur bo'ladi.

Ma'lumki, idrokning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, muloqot munosabatlarni o'rnatishda idrok jarayonida predmet va hodisalarning tomonlari, jihatlari o'rtasidagi munosabatlar aniqlanadi. Masalan, suhbat jarayonida tolib va talaba har bir narsani ko'z oldiga keltirishi va shu asosda nutq irod qila olishi alohi ahamiyatga ega.

Pedagog-psixolog olimlarning qayd qilishicha, "idrokning konstantligi – bironta narsani idrok qilishdan hosil bo'lgan obraz, idrokning fizik sharoiti o'zgarib tursa ham, doimo shu obraz holicha qolishidir. Idrokning konstantligi ko'rish idroklarida, narsalarning katta-kichikligi, ularni shakli va ranglarini idrok qilishda yaqqol ko'rinadi. Masalan, bir predmetning o'zi sutkaning turli vaqtda, yil fasllarida, har hil fonda turlicha idrok etiladi" [8].

Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlarning almashinuvi esa asosan uch shaklda amalga oshiriladi: 1) monolog; 2) dialog; 3) polilog.

Quyida kuzatishlarimizda ahamiyatli bo'lgan dialog va uni o'zbek tilidan amaliy mashg'ulot darslarida qanday tashkil qilish mumkinligi bo'yicha o'z fikrlarimizni o'rtoqlashamiz.

Ma'lumki, "**dialog** – o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida tinglovchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir. SHuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo'lishi va fikrlar almashinuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligini ta'minlaydi. Ya'ni, tinglovchilar o'quv jarayonining obyektidan uning subyektiga aylanadilar. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, dialog jarayonida professor-o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida fikrlar almashinuvi, bilimlarni o'zaro muhokama qila olish uchun real sharoit yaratiladi. Lekin dialogni tashkil etishdan avval o'qituvchi auditoriyaning u yoki bu xususda bilimlar va tasavvurlarga ega bo'lishini inobatda olishi zarur, aks holda o'zaro muloqot samarasiz va mazmunsiz tortishuvga aylanib ketishi mumkin" [9].

Polilog – esa guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchi talabalar faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida qo'llanadi. Polilog jarayonida guruh a'zolarining har biri muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, muallim esa ushbu jarayonning tashkilotchi sifatida tinglovchi-talabalar faoliyatiga aralashmaydi. Bu usul dars mavzusi ko'proq nazariy xarakterli bo'lib, yangi g'oyalardan ularning amaliy jihatlari keltirib chiqarilishi zarurati bo'lganda qo'l keladi [10].

Dialogning eng muhim psixologik xususiyati muammo va uni hal etilishi bo'yicha dars loyihasini tuzishi hamda uni talabalarga e'lon qilishi zarur bo'ladi. Professor-o'qituvchi munozarani samarali tashkil etish munoza mavzusini oldindan e'lon qilishi va bu bo'yicha tinglovchilar manbalarni izlab topishi lozim bo'ladi. Bu jarayon mashg'ulotlarda bahs – munozara – muloqot orqali tashkil etiladi. Demak, dialog, polilogni tashkil etish jarayoni bu dars va uning mavzusi hisoblanadi. Shuning uchun ham uni tashkil etish yo'llarini ilmiy-amaliy jihatdan bilish katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Muloqot qonuniyatlarini bilish, uni o'zbek tili, ya'ni ona tili darslarida amaliyotga joriy etish har bir professor-o'qituvchi va tinglovchi bo'lib tahsil olayotgan talib va talabalar uchun muhimdir.

Demak, muloqot jarayonida talaba-yoshlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, auditoriyadagi talaba-yoshlarning o'zaro birgalikda harakat qilishga odatlantirish muhimlik kasb etadi.

Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Muloqotning shakllanishida maqsad va vazifani to'g'ri qo'yish maqsadga muvofiq. Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda, turli obrazlar, tushunchalar orqali amalga oshadi. Pedagogik adabiyotlarda ko'rsatilishicha, muloqot mazmuniga ko'ra ko'yidagi turlarga ajratiladi: moddiy muloqot, kognitiv muloqot, konditsion muloqot, motivatsion muloqot.

Moddiy muloqot – deganda subyektini dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida, ayni paytda shug'ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayirboshlash tushuniladi.

Kognitiv muloqot – deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarni o'rganish, ma'lumotlarni bilib olish jarayonida o'zaro bilim almashinuviga aytiladi.

Konditsion muloqotda – psixologik va fiziologik holatlar ayirboshlanadi. Masalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko'tarishi yoki aksincha, ona qizining o'ksinib yig'layotgan holatiga yig'i bilan munosabat bildirishi va h.k.

Motivatsion muloqot – muayyan yo'nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o'zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar va ehtiyojlar almashinuvi jarayoni bilan izohlanadi [11].

Oliy ta'limda o'zbek tili darslarini tashkil etishda eng ahamiyatli motivatsion muloqot bo'lib, bunda har biri tahsil oluvchini darsga qiziqitira olish, shuningdek, talabaning qiziqishlari, ehtiyojlari orqali dars olib borish tushuniladi. Ona tili, ya'ni o'zbek tili amaliy mashg'ulot darslarining eng asosiy birlamchi maqsadi nutq va tafakkurning mutanosib holda rivojlantirishidir. Maqsadni sifatli amalga oshirish uchun esa turli samarador usul va metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Зиёдуллаева Г. Коммуникатив компетенцияни шакллантиришда қоидалар тизимидан фойдаланиш: муаммо ва ечимлар. Тил ва адабиёт таълими. 2019, № 7. 15-16-б.
2. Бототова Ж.А., Кострикова Ю.В., Радченко Е.А., Рахманова М.Н. Ценностные ориентации педагогов начальных классов // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2016. № 1-2. -С. 260-263.
3. <http://qomus.info/Эрудиция хакида>. – У ким, бу нима – QOMUS.INFO
4. <https://www.google.com/search?q=J.A.Корпенко&rlz>
5. <https://www.google.com/search?q=J.A.Корпенко&rlz>
6. Божович Л.И. О нравственном развитии и воспитании детей// Вопросы психологии. - М.: “Просвещение”, 1975. –С.78.
7. Каримова В.М., Акрамова Ф.А., Ҳайитов. О.Э., Лутфуллаева Н.Х. Психология: Дарслик. – ТДИУ, 2006, Б.116. 360 б.
8. Иванов П.И., Зуфарова М.У. Умумий психология. – Тошкент: 2018.
9. Иванов П.И., Зуфарова М.У. Умумий психология. –Тошкент: 2018; Каримова В.М., Акрамова Ф.А., Ҳайитов. О.Э., Лутфуллаева Н.Х. Психология: Дарслик - ТДИУ, 2006 11-б. 360-б.
10. Каримова В.М., Акрамова Ф.А., Ҳайитов. О.Э.,Лутфуллаева Н.Х. Психология: Дарслик - ТДИУ, 2006 – 116. 360 б.
11. Каримова Г. Мулоқот маданияти модули бўйича ўқув-услубий мажмуа . –Тошкент: 2018.
12. Шерматова Д.Я. Техника йўналиш талабаларида тил компетенциясини шакллантириш хусусида айрим мулоҳазалар. // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш» № 6/6 2022, 43-46-б.

REZYUME. Maqolada ona tili, ya'ni o'zbek tili amaliy mashg'ulot darslarining eng asosiy birlamchi maqsadi nutq va tafakkurning mutanosib holda rivojlantirishdan iborat ekanligi haqidagi shaxsiy munosabatlar yoritilgan. Texnika yo'nalishida tahsil olayotgan ta'limda talabalarning o'zbek tili bo'yicha kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish, ulardagi milliy muloqotning, nutq madaniyatining o'ziga xos tomonlarini rivojlantirishda turli samarador usul va metodlarni qo'llash takliflari berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье подчеркивается личная связь того, что основной первоочередной целью практических занятий по родному языку, то есть узбекскому языку, является пропорциональное развитие речи и мышления. В обучении студентов, обучающихся в сфере технологии, предлагается использовать различные эффективные методы и методы для развития компетенции профессионального общения на узбекском языке, развивать у них специфические стороны национального общения и речевой культуры.

SUMMARY. The article highlights the personal relationship that the main primary goal of the practical training classes of the native language, that is, the Uzbek language, is the proportional development of speech and thinking. In the education of students studying in the field of technology, it is suggested to use various effective methods and methods to develop the competence of professional communication in the Uzbek language, to develop the specific aspects of national communication and speech culture in them.

КОММУНИКАТИВ ҚЎБИЛЕТТИ РАЎАЖЛАНДЫРЫЎШЫ СӨЗСИЗ БАЙЛАНЫС ҚУРАЛЛАРЫ

Ж.Е.Шерниязова – магистрант

Эжсинияз атындагы Нокис мамлекетлик педагогикалык институты

Таянч сўзлар: сўз, сўзсиз алоқа воситаси, суҳбат, қобилият, психология.

Ключевые слова: слово, невербальное средство общения, речь, способность, психология.

Key words: word, nonverbal means of communication, speech, ability, psychology.

Сөзсиз байланыс куралларын изертлеу илим-пән та- раўларында ҳәр тәрәплеме изертлеуине қарамастан, бул машқала ҳәзирги күнге шекем келип те өзиниң актуал- лығын жоғалтпады. Сөзсиз байланыс биринши нәубет- те шахс өзиниң «МЕН»ин, тәсирди күшейтиўди хәм даўамлы қарым-қатнасты геўделендириўши курал сы- патында қолланылады. Элбетте, бул қатнас куралы жәрдеминде биз сәўбетлесимиздиң образын сәўлен- диремиз, сәўбет мазмунын анықластырамыз, хәмде вербал (сөзли) сәўбетке қарағанда көбирек мазмунды жеткерип, сәўбет даўамында анағурлым алдынғы пози- цияға өтемиз.

Сөзсиз байланыс (невербальное общение) – адамлар арасында сөзсиз коммуникациялық қарым-қатнаста болыу, яғный ҳеш қандай сөз хәм гәплерсиз байланыс мазмунын туўрыдан-туўры ямаса қандайда бир белги-

лер арқалы жеткерип бериў дегенди аңлатады. Та- рийхтан белгили адамзаттың ең биринши байланыс формасы бул сөзсиз байланыс есапланады. Бул бирли- клер белгили бир жағдайларда сөзсиз байланыс курал- лары сәўбетке шырай бағышлауы, айырым жағдайларда вербал бирликлерди толық алмастырыуы хәм айырым жағдайларда толықтырыуы мүмкин.

Заманагөй шахс тил ҳаққындағы билими хәм мәде- нияты менен бир қатарда, сөзсиз байланыс мәдениаты ҳаққында белгили бир дәрежеде билимге ийе болыуы талап етиледі, себеби бул бирликлердиң дерлик хәмме- си тил бирликлери яғный сөзлерге қарағанда көбирек мағлыўматты өзінде жәмлейди. Сол себебли де сөзсиз байланыс куралларын үйрениў әҳмийетли болып табылады хәм оларды еле де тереңрек изертлеу